



DaF - Unterricht im digitalen Zeitalter

Internationale Digitalkonferenz

27-28. November

Taschkent 2020



УДК: 43(07)
Р – 32
ББК: 81.2 Нем.

**DAF-UNTERRICHT
IM DIGITALEN ZEITALTER**

Beiträge und Referate der internationalen wissenschaftlich-praxisorientierten
Digitalkonferenz

Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари тўплами
Сборник материалов международной научно-практической онлайн-конференции

Die Redaktion übernimmt keine Haftung für die Qualität, Richtigkeit, Vollständigkeit und Aktualität der Beiträge. Die liegen im Verantwortungsbereich der jeweiligen Autoren und spiegeln nicht die Meinung der Redaktion wider.

Аммулан муъаллимга маъдум эшитган тезислардаги маълумотларнинг ҳақиқийлигини ва тўғрилигини учун муаллифлар таъссан жоъобдордир. Таъсиримти фикри мақолалар муаллифларнинг ҳараклари билан асос қозғалмастлиги алуқким.

За содержание и достоверность статей ответственность несут авторы. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей.

© GI Usbekistan © UzSPIC



Butayev Shavkat KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRUVCHI O'QITISH MASHQALARI – KOMMUNIKATIV LEKSIKANI O'RGATISHNING ASOSI.....	61
Есбергенова Г.Б. HEMIS TILI DARSIIDA O'QUVCHILARNING AKLIY VA HUKMIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O'NA TILINING TA'SIRI.....	64
Жаббарова Малокат Хамдамова TA'LIM JARAENIDA INNOVACION METODLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING ROLI HAMDA TA'LIM SIFATI.....	68
Жумаев Эркин Болтаевин HEMIS TILI DARSLARIDA BADIY MATNNI TAHLIL QILISH USULLARI.....	73
Энлева С.А. K PROBLEME RAZRABOTKI SISTEMY ZADANIY PO SOVERSHENKSTVOVANIU SOCIOLINGVISTICHESKOY KOMPETENЦИИ U STUDENTOV-FILOLOGOV V EPOXU CIFROVYX TEXNOLOGIY.....	75
Ibadullayeva Surayyo SHET TILLARINI O'QITISHDA TIL KOMPETENSIYALARINI TENG QO'LLASHNING SAMARADORLIGI.....	78
Irgasheva Feruza Baxtiyorovna CULI TEXNOLOGIYASINING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH BOSQIHLARI.....	80
Karimova Nodiraxon FÖRDERUNG VON FACHSPRACHEKOMPETENZ IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT... ..	82
Махмудова М.М. Каримова М.А. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISH DASTURINING ASOSIY VAZIFA VA YONALIHLARI.....	85
Назаров Пўлат Жўрамуродович ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NEMIS TILINI O'QITISHDA ARIFMETIK AMALLARDAN FOYDALANISH.....	87
Рахманова Зубайда Рахимбергеновна RAQMILASHIRISH DAVRIDA NEMIS TILINI O'QITISHDA METODIK TAVSIYALAR.....	91
Рўзиев Яраш Бозорович HEMIS TILINI O'QITISHDA SMART TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH HAQIDA.....	93
Tadjibaeva D.A. DIE DEUTSCHE DIGITALE KINDERUNIVERSITÄT: DEUTSCH UND MINT-FÄCHER.....	96
O'tanova Shahnoza Mahmudovna NEMIS TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH.....	99



IRGASHEVA FERUZA BAXTIYOROVNA
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

CLIL TEKNOLOGIYASINING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Tayanch so'zlar: CLIL, ta'lim metodi, til, texnologiya, interaktiv, bilingvizm.

Ключевые слова: CLIL, метод преподавания, язык, технология, интерактив, билингвизм.

Stichwörter: CLIL, Lehrmethode, die Sprache, die Technologie, interaktiv, Bilingualismus.

Annotatsiya: Ushbu maqolada CLIL texnologiyasining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, hamda uning turli mamlakatlar ta'lim tizimida qo'llanishi yoritilgan. Mazkur ish o'zida lingvistlar va pedagoglarning tilmni o'rgatish ta'lim metodlari hamda ta'lim tizimida ularning afzalliklari haqidagi fikrlarini qamrab olgan.

Аннотация: В этой статье речь идет о возникновении и истории развития технологии CLIL, применении этой технологии в образовательной системе разных стран. Эта работа содержит в себе идеи лингвистов и педагогов в области изучения языка и преимущества данной технологии в образовательной системе.

Annotation: In diesem Artikel geht es um die Entstehung und Entwicklungsgeschichte, um die Verwendung von CLIL Technologien im Bildungssystem in verschiedenen Ländern. Dieser Artikel enthält Ideen von Linguisten und Pädagogen über die Lehrmethoden von Sprachen und über die Vorteile im Bildungssystem.

CLIL chet tili yoki biror predmetni o'rganishning yangi shakli emas, balki bu o'zida CLIL gacha amalga oshirilgan va qo'llanilgan turli metodlarni mujassamlashtirgan innovatsion texnologiyadir. CLIL termini ilk bor XX asr oxirida David Marsh tomonidan taklif etilgan. Bu terminning shakllanganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, u butunlay yangicha hodisa emas. Odamlar ko'ptilli jamiyatda ilgarilari ham yashaganlar, XIX asr oxirlarida boy oilalar farzandlarini chetga o'qishga va til o'rganishga yuborganlar yoki bo'lmasa xorijlik til o'rgatuvchilarni farzandlari uchun yollaganlar. Bu orqali bolalar nafaqat grammatik qoidalarni, balki kerakli leksikani ham o'rganganlar. Shu tariqa bolalar tilni turli konstruksiyalar bilan bir qatorda kundalik muloqot orqali turli sohalarni ham o'rgana borishgan. Ikkitilli tahsil avval davlat tili bir nechta bo'lgan davlatlarda joriy etilgan, masalan Lyuksemburgda boshlang'ich sinfdan nemis tili, o'rta sinflardan boshlab esa, fransuz tili o'rgatilgan. Biror predmet mazmuni orqali chet tilini o'rganish prinsipi ikki mashhur pedagog tomonidan joriy etilgan. Birinchisi chexiyalik pedagog Yan Amos Kamenskiy bo'lib, u chet tillarini o'rganishda samaradorlikni muhim hisoblagan. Ikkinchi pedagog esa, Mattias Bel. Uning uchun til – o'quv dasturi predmetlarini egallash vositasi. Uning "So'zlarni atrofimizda reallik va dunyoni anglash uchun o'rgan" degan fikrini juda o'rinli deb hisoblayman.

1970 yilga qadar integrallashgan til o'rganish dasturlarini shakllantirish zaruriyati geografik, demografik va iqtisodiy xarakterga ega edi. Bunday dasturlarning qo'llanishidan maqsad – ikkitilli xarakterga ega instruksiyalarga tayanib til egalari bilan jonli muloqotda bo'lish yo'li orqali bolalarga chet tillarini o'rganishda ko'maklashish. Ikkitilli dastur qo'llanilgan ilk mamlakatlardan yana biri Kanada. 1965 yilda Kvebek hududida yashovchi ingliz tilida so'zlashuvchi bir guruh ota-onalar bolalar bog'chasida farzandlariga quyidagi imkoniyatlarni beruvchi ta'lim dasturini shakllantirishni zaruri deb hisoblashgan:



- Nemis tilida gapirish, o'qish va yozishni o'rganish;
- O'quv fanlari bo'yicha muqobil natijalarga erishish;
- Nemis va ingliz tilida so'zlashuvchilar madaniyatini qadrlash va hurmat qilish. [1]

Ular hokimiyat vakillariga ushbu muammoni hal qilish bo'yicha murojaat qilganlar va natijada til sohasida tahsil oladigan talabalar ko'magida maktablarda chet tilini o'qitish dasturi asosida tahsil joriy etildi. Chet tilida so'zlashuvchi o'quvchilar o'z istagi bilan nemis tilida so'zlashuvchi bolalar bilan fanlarni (matematika, geografiya) nemis tilida o'qishgan. Avval boshida bu metod alohida sohalarning chet tilida o'qitilishini nazarda tutgan.

CLIL texnologiyasi asosan Kanada, AQSh va Yevropa boshlang'ich va o'rta maktablarida keng tarqalgan. Kanada til dasturlari va Britaniya LAC dasturlari CLIL texnologiyasining shakllanishida asos bo'ldi. Marshning fikricha, 1994 yilga qadar Yevropada CLIL texnologiyasini tadbiq etish siyosiy va ta'lim sohasi rivojiga bog'liq. Yevropa Ittifoqidagi ijtimoiy mobillik chet tili bo'yicha yuqori darajadagi kompetensiyani talab qiladi. Ta'lim sohasida esa, yanada kompetent talabalarni tarbiyalashdan maqsad – mavjud o'qitish metodlarini singdirish va yaratishdir. 1990-yillar mobaynida CLIL chet tili o'qitishning integratsion dasturi va predmet mazmunini o'rganishda Yevropada eng keng tarqalgan termin sanaladi.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, kommunikativ yondashuv XX asr lingvodidaktikasida ulkan hodisa sanaladi. Chunki aynan shu orqali talabalar tilni real kundalik jarayonlarda muloqot vositasi sifatida qabul qila boshlashdi. Bugungi kunda chet tilini o'qitishda yetakchi va keng tarqalgan yondashuv aynan kommunikativ yondashuv bo'lib, o'zida turli interkativ topshiriqlar, turli guruh va yakka tartibda bajariladigan ishlar, o'yinli metodlar, qo'shiq va filmlar o'rganilayotgan til muhiti va mamlakati madaniyatiga g'arq bo'lish, internet manbalaridan keng va umumiy foydalanish esa, talabada avtonomlikning rivojlanishiga va chet tilini egallashda kommunikativ yondashuvni kengaytirish uchun imkon beradi.

Kommunikativ yondashuv doirasida yana bir yangi va qiziqarli– chet tilini mavjud material tahlili asosida o'rganish yo'nalishi shakllandi va rivojlandi. Bu tili o'rganishda material mazmuni elementlarini o'z ichiga oluvchi integratsiyalashgan yo'nalishdir. Ammo bizga ma'lumki, bu yondashuvlar ilgari ham ta'lim jarayonida qo'llanilgan bo'lib, faqatgina ular yagona yondashuv yoki metod ostida birlashtirilmagan, xolos. Intergatsiyalashgan yondashuvda til biror predmetni muhokama qilishda diskussiya vositasi bo'lib, ta'limda ikkinchi darajali sanaladi. Shunday qilib, tahsil olayotganlar o'zlariga qiziqarli bo'lgan fanni ona tilidan emas, balki chet tilidan foydalangan holda o'rganadilar va shu bilan bir qatorda o'zlari o'rganayotgan chet tili bo'yicha turli sohalarga doir lingvistik kompetensiyalarini ham boyitib boradilar. Olimlarning fikriga tayanadigan bo'lsak, yangi narsani chet tili vositasida o'rganish - bizga joriy til bilish darajasiga qaraganda yuqoriroq darajani egallash imkonini beradi. Ko'plab lingvistlar fikricha, agar til real va kommunikativ holatlarda o'rganilsa, ancha samaraliroq bo'ladi.

2007 yilga kelib CLIL texnologiyasi 20 ta Yevropa mamlakatida qo'llanila boshlandi [2]. Hozirgi kunda ko'plab Yevropa universitetlarida o'qituvchilarni CLIL texnologiyasi bo'yicha tahsilni o'rgatuvchi tayyorlov kurslari mavjud.

2001 yilga kelib, chet tilini o'rganish boshqa predmetlarni o'rganish vositasi sifatida modernizatsiya qilindi va aynan shu jihat uning boshqa metodlardan ajratib turuvchi jihati sanaladi. CLIL tilning o'zini o'rganish yoki undan foydalanish emas, balki boshqa predmetlarni o'rganish vositasi sifatida qo'llanuvchi metod sanaladi. Bu esa ta'lim jarayoniga ikki tomonlama yondashuv degani: o'rganilayotgan tildan biror fanni o'rganishda foydalanish va bir vaqtning o'zida tili ham o'rganish [3].

Talabalar bilan ishlash jarayonida nafaqat ularning til kompetensiyalari, balki ta'lim predmetlari turli bilim sohalarining yanada kengroq o'rganilishini rivojlantirishi mumkin. CLIL



metodi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda fikrlash qobiliyatining rivojlanish imkoniyati balandroq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Baker, C. & Jones, S. P. Encyclopedia of Bilingualism and Bilingual Education. Clevedon: Multilingual Matters. 1998.
- 2) Kovacs, J. CLIL – Early competence in two languages. The world at their feet: Children's early Competence in Two Languages through Education. Budapest: Eötvös József Könyvkiado. 2014.
- 3) Mehisto, P., Marsh, D. & Frigols, M. J. Uncovering CLIL. Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Oxford: Macmillan Education. 2008.

KARIMOVA NODIRAXON

Andjamer: Staatliche Universität, DaF-Lehrerin

FÖRDERUNG VON FACHSPRACHEKOMPETENZ IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT

Таянч сўзлар: соҳа тили, нутқий фаолият, немис тили, мулоқот эҳтиёжи, соҳа мавзулари, касбий таълим битирувчилари

Ключевые слова: профессиональный язык, языковая деятельность, немецкий язык, коммуникативная мотивация, отраслевые темы, выпускники колледжей

Schlüsselwörter: Fachsprache, Sprachaktivitäten, Deutsch, Kommunikationswille, Branchenthemen, Berufsakademiker

Аннотация: ушбу мақола касба ўқитирилган тил кўникмасини ривожлантирувчи самарали методлар ва уларнинг чет тили дарсида қўллаш усуллари ёритилган.

Аннотация: в этой статье описаны аффективные методы развития профессиональных языковых навыков и их применение на уроках иностранного языка.

Abstract: Der Artikel beschreibt effektive Methoden zur Entwicklung professioneller Sprachkenntnisse und deren Anwendung im Fremdsprachenunterricht.

Es ist wichtig, die Besonderheiten der Arten von Sprachaktivitäten und die Merkmale all dieser Arten bei der Entwicklung der Fähigkeiten der Schüler zum Informationsaustausch in einer Fremdsprache zu berücksichtigen.

Wenn die Schüler lernen, im Klassenzimmer Deutsch zu sprechen, entwickeln sie Interesse daran, mit ihren Kollegen auf Deutsch zu kommunizieren.

Ein Schüler, der versucht, die Sprache aufgrund der Notwendigkeit der Kommunikation mit Bedacht einzusetzen, konzentriert sich auf die operativen und motivationalen Aspekte der Sprachaktivität.

1. In der Praxis ist es gerechtfertigt, dass ein Schüler seine Meinung in den folgenden Phasen anderen mitteilt:
2. Die Entstehung der Idee der Sprache im Kopf des Lesers und die Entstehung des Willens, der notwendig ist, um diese Idee dem Gesprächspartner zu vermitteln (Neigung).
3. Sprachbildung (Meinungsäußerung).